Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



## TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATINING BANKLAR RESURS SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI ROLI

**Jo'rayev Isroil Ibrohimovich**

Toshkent moliya instituti "Bank ishi" kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Bugungi banklararo raqobat kurashi sharoitida tijorat banklarining depozit siyosati samaradorligini oshirish, uning bank resurs bazasini mustahkamlashdagi ahamiyatini yanada mustahkamlash har qanday tijorat bankining strategik maqsadlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada tijorat banklari depozit siyosatining shakllanishi, uning nazariy asoslari, banklarda resurslarni shakllantirishda depozit siyosatining o'ri kabi masalalar yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasi va unga xos bo'lgan tendensiyalar tahlil qilingan, tegishli xulosa va takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** depozit siyosati, omonat, muddatli depozit, bank resurslari, depozit baza, bank aktivlari, bank foydasi, foiz stavka.

**Abstract:** One of the strategic goals of any commercial bank is to increase the effectiveness of the deposit policy of commercial banks in the conditions of today's interbank competition, and further strengthen its importance in strengthening the bank's resource base. This article describes issues such as the formation of the deposit policy of commercial banks, its theoretical foundations, the role of the deposit policy in the formation of resources in banks. In addition, the resource base of commercial banks of our country and its specific trends were analyzed, relevant conclusions and suggestions were formed.

**Key words:** deposit policy, deposit, term deposit, bank resources, deposit base, bank assets, bank profit, interest rate.

**Аннотация:** Одной из стратегических целей любого коммерческого банка является повышение эффективности депозитной политики коммерческих банков в условиях современной межбанковской конкуренции, дальнейшее усиление ее значения в укреплении ресурсной базы банка. В данной статье рассмотрены такие вопросы, как формирование депозитной политики коммерческих банков, ее теоретические основы, роль депозитной политики в формировании ресурсов банков. Кроме того, была проанализирована ресурсная база коммерческих банков нашей страны и ее специфические тенденции, сформированы соответствующие выводы и предложения.

**Ключевые слова:** депозитная политика, вклад, срочный депозит, ресурсы банка, депозитная база, активы банка, прибыль банка, процентная ставка.

### KIRISH

Tijorat banklarining depozit siyosati ularning faoliyatida muhim o'rin tutadi. Banklar jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlaridan bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb qiladi va bu mablag'larni kreditlash hamda boshqa moliyaviy xizmatlar ko'rsatish uchun yo'naltiradi. Depozitlar banklar uchun mijozlarni moliyalashtirishning asosiy manbayi bo'lib, ushbu mablag'lar mijozlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish, o'z biznes faoliyatlarini rivojlantirish va samarali faoliyat yuritish imkonini beradi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga o'z mablag'larini banklarga joylashtirishini qiziqtirish va rag'batlantirish uchun turli foiz stavkalari, muddatlar, minimal miqdorlar va boshqa shartlarni taklif qiladilar. Buning uchun ular marketing strategiyalarini ishlab chiqadilar, bozor tadqiqotlarini o'tkazadilar va potensial mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib boradilar.

Shuni ta'kidlash kerakki, depozit siyosati banklar uchun risklarni boshqarish bilan ham bog'liq faoliyat hisoblanadi. Banklar omonatlarni jalb qilish va mijozlar mablag'larining xavfsizligini ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlashlari kerak. Ular o'z depozit portfelining likvidligi, rentabelligi va barqarorligini doimiy kuza-tishlari va tahlil qilib borishlari lozim.

Banklar o'z mijozlari bilan munosabatlarda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashlari, o'z majburiyatlarini vaq-tida va to'liq bajarishlari, risk va daromadlarni adolatli taqsimlashlari kerak. Shuningdek, jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda omonatlarni barqaror va samarali investitsiya qilishni rag'batlantirishlari lozim bo'ladi.





O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim xususiyati milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilayotganligidadir. Tijorat banklari mamlakat hududidagi korxonalar va jismoniy shaxslarning ehtiyojlari hamda imkoniyatlariga moslashtirilgan turli xildagi depozit turlarini taklif qilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari depozit siyosatining yana bir xususiyati, depozitlarning barqarorligi va xavfsizligiga yuqori darajada e'tibor qaratilishidir. Markaziy bank tijorat banklarining depozit operatsiyalarini amalga oshirishga nisbatan faoliyatini qat'iy nazorat qilib, ularning barqarorligi va likvidligini ta'minlash choralari ko'rib boradi. Banklar, shuningdek, omonatlarni himoyalash va ular bo'yicha foizlarni o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha talablarga rioya qilishlari shartdir.

Bundan tashqari, milliy bank tizimining xususiyatlaridan kelib chiqib, tijorat banklarining depozit siyosati aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda fuqarolarning o'z mablag'larini to'g'ri boshqarishlari va samarali taqsimlash bo'yicha qarorlar qabul qilishlari uchun iqtisodiyot, moliya va bank sohalarida axborotlar almashinuvchanligini ta'minlash va shaffofligini oshirish choralari ko'rilmogda.

O'zbekistonda tijorat banklarining depozit siyosati ham bank xizmatlarini raqamlashtirish bilan bog'liq jahon tendensiyalarini o'zida aks ettirmogda. Aksariyat banklar virtual va onlayn depozitlarni taklif qilmoqdalar, bu o'z navbatida tijorat banklari o'rtasida raqobat muhitini yanada yaxshilash bilan birga, mijozlar uchun qulay va daromadli depozit turlarini oshishiga zamin yaratmoqda.

Umuman olganda, tijorat banklarining depozit siyosati ularning faoliyatida muhim o'rin tutadi. Samarali depozit siyosti tijorat banklarini uzoq muddatli va barqaror resurslar bilan ta'minlash imkonini beradi, shuningdek, iqtisodiy taraqqiyot va jamiyat farovonligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Tijorat banklarining mijozlardan (jismoniy va yuridik shaxslardan) depozit (omonat)larni jalb qilishi uning asosiy faoliyatidan biridir. Ushbu faoliyatning muvaffaqiyati nafaqat bankning resurslarni moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda, balki uning bank tizimidagi mavqeyini mijozlar, tizimning boshqa ishtirokchilari va nazorat qiluvchi organlar tomonidan e'tirof etilishi va ishonch darajasida ham namoyon bo'ladi.

"Tijorat bankining depozit siyosati" tushunchasining mohiyatini yanada oydinlashtirish uchun iqtisodiy adabiyotlarning turli manbalarini tahlil qilish zarur.

N. V. Alenteva, R. V. Nazarovlarning fikriga ko'ra, "Har qanday bank o'zining resurs bazasini mustahkamlash va kengaytirish uchun zarur bo'lgan diversifikatsiya darajasini, aktivlarni muddatlari va foiz stavkalari bo'yicha muvozanatini ta'minlashi uchun oqilona depozit siyosatini ishlab chiqishi zarurdir" [1].

G. G. Korobova "Depozit siyosati – tijorat bankining bank resurslarini shakllantirish, ularni rejalashtirish va tartibga solishda bank faoliyati shakllari, maqsadlari, mazmunini aniqlashga qaratilgan faoliyati majmuyi" [2].

M. R. Kadjayeva "Depozit siyosati – yuridik va jismoniy shaxslarning banklar tomonidan omonat shaklidagi mablag'larini keyinchalik o'zaro manfaatli foydalanish maqsadida jalb etishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi" [3].

O. I. Lavrushin "Depozit siyosati – omonatchilarning mablag'larini jalb qilish va jalb qilish jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan bank siyosatining bir turi" [4].

G. N. Beloglazova, L. P. Kroliveskaya "Depozit siyosati tijorat banklarida korxonalar, tashkilotlar va aholining vaqtincha bo'sh pul mablag'larini depozitlardagi bank hisobvaraqlariga jalb qilish jarayonini tartibga soluvchi asosiy hujjatdir" [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim B. U. Shermuxammedov "Tijorat bankida o'z depozit siyosatini ishlab chiqish, avvalo, bank resurslarini shakllantirish bo'yicha bank faoliyatini rivojlantirish vazifalarini, mazmunini belgilash, shuningdek, ularni rejalashtirish va rivojlantirishdan iborat choratadbirlar majmuyini ishlab chiqishni nazarda tutadi hamda tartibga soladi. Depozit faoliyati – bu barcha depozit operatsiyalari asos va poydevor bo'lib, uni "banklarning yuridik va jismoniy shaxslardan mablag'larini ma'lum muddat yoki talab bo'yicha depozitlarga jalb qilish bo'yicha operatsiyalari" deb tushunish kerak" [6] deb ta'kidlaydi.

Umuman olganda tijorat banklarining depozit siyosti- bu banklar tomonidan mijozlarning bo'sh pul mablag'larini turli xil shartlarda jalb qilish, ushbu mablag'larni samarali boshqarish, bankning likvidligi va daromadligini ta'minlashga xizmat qiladigan chora-tadbirlar majmuyini o'z ichiga olgan hujjatidir.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tijorat banklarining depozit siyosatini ishlab chiqish, uning banklarning resurs salohiyatini oshirishdagi roli har qanday bank uchun muhim hisoblanadi. Tijorat banklari resurs bazasini shakllanishi va unga xos bo'lgan xususiyatlar o'rganildi hamda ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlash jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish ularning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlashni taqozo etadi. Bank resuslarining asosiy qismi bank tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari orqali tashkil topadi va bank balansining passiv qismida yuritiladi. Jumladan, 2023-yilning 1-yanvar holatiga, mamlakatimiz tijorat banklari passivlarining umumiy miqdori 444,9 trln. so'mni tashkil etgani holda, banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar – 156,2 trln. so'mni tashkil qildi <sup>[7]</sup>.

Tijorat banklari tomonidan aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank depozitlariga jalb qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.



**1-rasm:** Tijorat banklari tomonidan aholi va yuridik shaxslardan jalb qilingan omonatlar miqdori va dinamikasi (trln.so'm., yil boshiga) <sup>[8]</sup>

O'z navbatida, 1-rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, tijorat banklarining jalb qilgan depozitlari tarkibida aholi omonatlarining miqdori so'nggi besh yilda qariyb 2,5 barobarga oshgan. Yuridik shaxslarning depozitlari ham xuddi shunday miqdorda ko'paygan. Biroq so'nggi 5 yilda banklar tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar tarkibida aholi omonatlarining ulushi 21 foizdan 31 foizgacha oshgan. Bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ancha sezilarli darajada yuqoridir.

Ta'kidlash joizki, banklarning depozit bazasi mustahkamligini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida bank depozitlari tarkibidagi barqaror resurslarning ulushi yuqori ekanligidir.

Bizga ma'lumki, tijorat banklarning depozit bazasi transaksion depozitlar, muddatli va jamg'arma depozitlarini o'z ichiga oladi. Banklarning depozit bazasi tarkibini sinchiklab o'rganish va puxta tahlil qilish juda muhim ahamiyatga egadir. Sababi shu orqali ularning depozit bazasi tarkibi va dinamikasini samarali baholashimiz mumkin bo'ladi va buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanamiz.

**1-jadval:** O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jalb qilingan depozitlar tarkibi <sup>[9]</sup> (yil boshiga, foizda)

Depozitlar	Yillar				
	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Yuridik shaxslar depozitlari	78,9	76,9	76,1	72,9	68,3
Jismoniy shaxslar depozitlari	21,1	23,1	23,9	27,1	31,7
Jami	100,00	100,0	100,0	100,0	100,0


1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda tijorat banklari depozitlarining 70 foizga yaqini yuridik shaxslarning depozitlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Yuridik shaxslar depozitlarining tarkibida talab qilib olinguncha depozitlarning salmog'i pasayish tendensiyasiga ega bo'layotgan bo'lsa-da, ushbu ko'rsatkich xalqaro me'yorlarda belgilab qo'yilgan me'yordan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Aholi omonatlarining jami depozit mablag'lari tarkibidagi ulushi esa, o'z navbatida, 2018-yilda 21,1 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 31,7 foizga oshgan.

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, 2018-2022-yillarda yuridik shaxslarning jamg'arma depozitlarining ulushi past darajada saqlanib qolmoqda. Ushbu holat banklar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini jamg'arma depozitlarga jalb qilish amaliyoti yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Respublikamizda mazkur holat bo'yicha qilinadigan ishlar talayginaligi ko'rinib qolmoqda. Chunki, Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, tijorat banklarining depozitlari tarkibida mazkur depozit turlarining ulushi ancha yuqori bo'lib, ushbu depozit mablag'lari tijorat banklari uchun uzoq muddatli kreditlash va investitsiyalash faoliyatini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi <sup>[10]</sup>.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tahlil qilingan davrda mamlakatimiz tijorat banklari depozit bazasida o'sish tendensiyasiga namoyon bo'lmoqda, biroq ularning depozit bazasi mustahkam, deyish mushkul.


Tijorat banklari tomonidan depozitlarni jalb qilishda qanday muammolar mavjudligini aniqlashda, avvalombor, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan banklar kesimida o'rganilishi va tahlil etilishi lozim, deb hisoblaymiz.



2-rasm: O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan ayrim tijorat banklarining depozit xizmatlari bozoridagi ulushi (01.01.2023 holatiga, foizda) <sup>[11]</sup>

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlarni tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz bank tizimida kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarining depozitlarining miqdori keltirib o'tilgan. 2.2.-rasm ma'lumotlariga shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda 2022-yil yakunlariga ko'ra mamlakatimiz bank tizimining yalpi depozitlari 216,7 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, shundan kapitalida davlat ulushi mavjud tijorat banklarining ulushi 63 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rstkichni banklar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatimizning yirik banki hisoblangan O'zmilliybank bu borada eng yuqori ko'rsatkichga ega. O'tgan 2018-yil yakunlariga ko'ra bankning yalpi depozitlar salmog'idagi ulushi 17,6 % yoki 38,1 trln. so'mni tashkil etmoqda. Mamlakatimizning yana bir yirik banki hisoblangan Xalq banki bu ko'rsatkich bo'yicha anchagina past o'rinni egallaganligi salbiy holat hisoblanadi. Umuman, tijorat banklari tomonidan depozitlar jalb qilish bo'yicha puxta o'ylangan strategiya ishlab chiqilishi bank resurs bazasining oshishiga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatda faoliyat olib borayotgan tijorat banklari o'rtasida raqobatning yaxshi shakllanmaganligi, banklarning depozit operatsiyalarining miqdori va sifatiga bevosita o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, sog'lom raqobat muhiti mavjud bo'lsagina banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarning turlariga, ayniqsa, bank depozitlarining jozibadorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, bu muammoni muhtaram Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Oxirgi yillarda davlat budjetidan tijorat banklariga dasturlarni moliyalashtirish uchun 8,4 trillion so'm, so'nggi ikki yil ichida banklar kapitalizatsiyasini oshirish uchun 3,3 milliard dollar davlat mablag'lari berilgan bo'lsa-da, bu mablag'lardan samarali foydalanilmayotgani mijozlar va bank daromadlarini ko'paytirish borasidagi ishlar yetarli emas" <sup>[12]</sup> – deb ta'kidlab o'tganliklari bejizga emas.



3-rasm: Respublikamiz tijorat banklari depozit operatsiyalari ulushi (01.01. 2023-yil holatiga) <sup>[13]</sup>



Mamlakatimiz tijorat banklarining depozit jalb qilish amaliyoti tahlili natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimiz bank amaliyotida raqobat muhiti yaxshi shakllanmagan. Masalan, yirik tijorat banklari hisoblangan O'zmilliybank (18%), Ipoteka bank (7%), Asakabank (7%), O'zsanoatqurilishbank (7%) va Xalq bank (6%)ning depozitlari hajmi mamlakatimiz jami depozitlarining 45 foizini tashkil qilayotganligi bank tizimi depozit bazasining mustahkamlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro bank amaliyotida mamlakatdagi banklarning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda banklar konsentrsiyalashuv koeffitsiyentidan keng foydalaniladi. Ushbu koeffitsiyentga ko'ra, mamlakatda faoliyat yurituvchi 3 ta yirik tijorat bankining bank xizmatlari bozoridagi ulushi aniqlanadi. Bu ko'rsatkichning 35 foizdan past bo'lishi mamlakatdagi bank xizmatlari bozorida raqobat muhiti yaxshi shakllanmaganligidan va bank tizimida monopollpshuv mavjudligidan dalolatdir [14].

Hozirgi vaqtda bank raqobatining rivojlanishi tufayli ko'pgina tijorat banklari o'rta va uzoq muddatli depozit resurslari oqimini cheklash muammosiga duch kelishmoqda. Resurs bazasini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishi sifatida biz mijozlarning turli ish rejimlariga ega depozit hisobvaraqlari doirasini kengaytirishni taklif qilishimiz mumkin, bu esa bank omonatchilariga o'z mablag'laridan maqbul daromad darajasida foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etadi. Shu maqsadda, shuningdek, depozit siyosatini kengaytirish maqsadida tijorat banklari depozit siyosatini faollashtirishlari kerak, uning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- mijozlarni bank tanlashda ularning motivatsiyasini aniqlash maqsadida monitoring qilish, chunki hisobni yopishning asosiy sababi, qoida tariqasida, raqobatdosh banklar tomonidan yanada jozibador xizmat ko'rsatish shartlarini taklif qilishdir;
- bankka ishonchni kuchaytirish, uning ishonchliligi, ko'p yillik tajribasi, raqobatdosh ustunliklari, xizmat ko'rsatish qulayligini ta'kidlab, mablag'lar oqimini rag'batlantirish maqsadida bank xizmatlarini reklama qilish;
- xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirish, mijozlarga maksimal qulaylikka erishish uchun xizmat ko'rsatish texnologiyasini takomillashtirish;
- asosiy xizmatga ba'zi bir bog'liq yoki qo'shimcha xizmatlarni taklif qilish orqali kompleks xizmatlarni (xizmatlarni qadoqlash) shakllantirish.

## XULOSA

Tijorat banklari depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati moliyalashtirishning asosiy manbayi bo'lgan depozitlarni jalb qilish va boshqarishga qaratilgan strategik qarorlar hamda chora-tadbirlarni ishlab chiqishda namoyon bo'ladi. Tijorat banklari faoliyatida depozit siyosatining bank resurslarini shakllantirishdagi o'rni nihoyatda katta bo'lib, bir qancha asosiy jihatlarni qamrab oladi:

1. Moliyalashtirishning muhim manbasi sifatida: Tijorat banklarining kredit va investitsion faoliyatini moliyalashtirish darajasi jismoniy shaxslar, korxonalar va boshqa tashkilotlardan jalb qilingan depozitlarga bog'liq. Depozit siyosati raqobatbardosh foiz stavkalari, moslashuvchan shartlar va har xil turdagi depozit turlarini taklif qilish orqali mijozlarni jalb qilish va saqlab turish choralari o'z ichiga oladi.
2. Qarz olish qiymatini belgilash: Depozitlar banklar uchun majburiyat hisoblanib, banklar ular bo'yicha ma'lum foizlarni to'lashlari kerak. Depozitlar bo'yicha foizlarni to'lash kabi xarajatlar banklarning rentabelligiga sezilarli ta'sir qiladi. Banklar raqobatbardoshlikni saqlab qolish uchun depozit stavkalarini muvozanatlashi va bankning yetarli daromadlilikini ta'minlashi talab etiladi.
3. Likvidlikni boshqarish: Depozitlar banklar uchun barqaror va ishonchli moliyalashtirish manbasini ta'minlaydi, ulardan kreditlar berish va investitsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanadilar. Depozitlarning jalb qilinishi va mijoo'lar tomonidan qaytarib olinishi banklarda yetarli darajada likvidlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Depozit siyosati likvidlik talablarini belgilash va tegishli likvidlik koeffitsiyentlarini saqlashni o'z ichiga oladi.
4. Risklarni boshqarish: Depozitlarning tarkibi va sifati bankning risk profiliga ta'sir qiladi. Banklar depozitlar bilan bog'liq turli risklarni, jumladan, kredit riski, foiz riski va likvidlik riskini doimiy tahlil qilishi hamda samarali boshqarishi talab etiladi. Depozit siyosati depozit manbalarini diversifikatsiya qilish, depozitlar konsentrsiyasini monitoring qilish va depozitlarni sug'urtalashni amalga oshirish orqali risklarni boshqarish amaliyotini o'rnatishni nazarda tutadi.
5. Mijozlar bilan o'zaro aloqalar va ishonch: Depozitlar mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish va ishonchni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Banklar mijozlarga yo'naltirilgan depozit mahsulotlari va xizmatlarini taklif qilishga, mijozlarga individual yondashishga (VIP mijozlar), depozit hisobvaraqlarining xavfsizligi va maxfiyligini ta'minlashga intiladi. Kuchli depozit siyosati mijozlarning bank xizmatlaridan qoniqishi va sodiqligini oshiradi, bu esa depozitlarni barqarorligini ta'minlash va samarali joylashtirish imkoniyatlarini oshiradi.





Demak, depozit siyosatining iqtisodiy mohiyati va uning tijorat banklari faoliyatidagi o'rni tijorat banklarining barqaror moliyalashtirilishini, rentabelligini, likvidligini va risklarni boshqarishni ta'minlash uchun depozitlarni strategik boshqarish bilan bog'liq. To'g'ri amalga oshirilgan depozit siyosati banklarga omonatlarni jalb qilish va saqlashga, mustahkam moliyaviy bazani ta'minlashga va ularning umumiy bank operatsiyalarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алентьева Н. В., Назаров Р. В. Политика банка в области привлечения средств //Н. В. Алентьев: Аграрный сектор экономики России: опыт, проблемы и перспективы развития: материалы Всероссийской научной конференции. 2018. –С. 256-260.
2. Банковское дело: учебник / под ред. д-ра экон. наук, проф. Г. Г. Коробовой. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Магистр: ИНФРА-М, 2015. – 592 с.
3. Каджаева М. Р. Банковские операционные / М. Р. Каджаева. – М.: ИЦ “Академия”, –2018. – 464 с.
4. Лаврушин О. И. Банковский менеджмент / О. И. Лаврушин. – М.: КНОРУС, 2018. – 554 с.
5. Белоглазова Г. Н. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка / Г. Н. Белоглазова, Л. П. Кроливецкая. – М.: Издательство Юрайт, –2018 с. – 645 с.
6. B. U. Shermuxamedov. Tijorat banklarining depozit siyosati va uni iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021-yil.
7. www.cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
8. www.cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
9. "Ahbor-Reyting" Reyting agentligi choraklik nashr ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
10. Jurayev PhD, I. (2021). Urgent Issues To Increase The Sustainability Of The Banking System Of The Republic Of Uzbekistan. International Finance and Accounting, 2021(6), 12.
11. www.cbu.uz.-O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2014-2018-yillardagi statistik ma'lumotlari.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 25-oktyabrdagi "Bank tizimini isloh qilish va banklarning investitsiyaviy faolligini oshirish borasidagi ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishi"dagi ma'ruzasi. www.president.uz
13. www.cbu.uz.- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.
14. Ortiqov O. A., Qulliyev I. Ya. Bank menejmenti va marketingi. O'quv qo'llanma.:T. "Iqtisod-moliya". –2015 y.178 b.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.